

ISLOM MANBALARI VA MAROSIMLARI: IJTIMOY JIPSLIK VA AXLOQIY TARBIYA OMILI SIFATIDA

Odilova Zuhrakhon *Farg'ona davlat universiteti,*
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Islom dinining asosiy manbalari (Qur'oni Karim va Hadisi shariflar) hamda diniy marosimlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda islomiy qadriyatlarning insonparvarlik, halollik va jamoaviylik kabi fazilatlarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, diniy marosimlarning ijtimoiy birlashuv, ma'naviy poklanish va yoshlar tarbiyasidagi pedagogik jihatlari zamonaviy nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Maqola milliy o'zlikni anglashda diniy merosning o'rnini ilmiy asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Islom, Qur'on, Hadis, marosimlar, ijtimoiy barqarorlik, axloqiy mezonlar, ma'naviyat, jamoaviylik, milliy qadriyatlar.

Abstract

This article analyzes the role and importance of the primary sources of Islam (the Holy Quran and Hadiths) and religious ceremonies in social life. The research highlights the role of Islamic values in forming qualities such as humanity, honesty, and collectivism. Also, the pedagogical aspects of religious ceremonies in social integration, spiritual purification, and youth education are considered from a modern perspective. The paper scientifically justifies the role of religious heritage in understanding national identity.

Keywords: Islam, Quran, Hadith, ceremonies, social stability, ethics, spirituality, collectivity.

Kirish

Insoniyat madaniyati va ma'naviyati tarixida din har doim jamiyatni birlashtiruvchi va axloqiy mezonlarni belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Islom dini asrlar davomida xalqimizning kundalik hayoti, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi globallashuv va mafkuraviy ziddiyatlar kuchaygan davrda, islomiy manbalarning asl mazmunini tushunish va marosimlarning ijtimoiy ahamiyatini anglash yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Islom nafaqat e'tiqod tizimi, balki yuksak axloqiy va huquqiy tartib-qoidalar majmuidir. Vygotsky (1978) ta'kidlaganidek, inson shaxsining shakllanishi u yashayotgan jamiyatning madaniy va ma'naviy artifactlari (manbalari) bilan bevosita bog'liqdir [3]. Islomiy manbalar aynan shunday ma'naviy asosi bo'lib, u yoshlarda "ijtimoiy mas'uliyat" hissini uyg'otadi.

Asosiy manbalar:

Qur'oni karim va hadisi shariflar Islom axloqining bosh manbasi bo'lmish Qur'oni Karimda insonlar o'rtasidagi adolat, mehr-oqibat, ota-onaga ehtirom va ilmni ulug'lash kabi umuminsoniy tamoyillar qat'iy belgilangan. Qur'on oyatlarida inson doimo tafakkur qilishga, olam sirlarini o'rganishga chorlanadi. Ikkinchi muhim manba — Hadisi shariflar bo'lib, ularda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotiy o'g'itlari jamlangan. Buyuk vatandoshlarimiz Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy tomonidan to'plangan hadislar bugungi kunda ham o'zining pedagogik ahamiyatini yo'qotmagan. Masalan, "Kishining islomining go'zalligi — uning foydasiz narsalarni tark etishidir" degan hadis zamonaviy vaqtni boshqarish (time management) va shaxsiy rivojlanish tamoyillariga to'la mos keladi. Richards (2008) muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda axloqiy me'yorlarning o'rni katta ekanini ta'kidlaganidek, hadislar muloqot odobining eng yuksak namunalari taqdim etadi [6].

Islomiy marosimlarning ijtimoiy-psixologik roli

Islomiy marosimlar (namoz, ro'za, zakot, hayitlar) shunchaki ibodat amallari bo'lmay, ular o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi: Jamoaviylik (Social Cohesion): Jamoat bilan bajariladigan amallar (masalan, juma namozi yoki hayit namozlari) jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarni bir joyga jamlaydi. Bu esa odamlar o'rtasida tabaqalanishni kamaytiradi va o'zaro hamjihatlikni kuchaytiradi. Ma'naviy Poklanish: Ramazon oyi va ro'za marosimi insonda sabr, qanoat va nafsni tiyish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. Rost (2011) ta'kidlaganidek, insonning diqqat-e'tibori va ichki intizomi uning umumiy rivojlanishida muhim omildir [4].

Ijtimoiy Adolat: Zakot va fitr-sadaqa marosimlari jamiyatda boylar va kam ta'minlanganlar o'rtasida "ko'prik" vazifasini o'taydi. Bu esa ijtimoiy adolatni ta'minlash va jamiyatdagi tajovuzkorlik (aggression) darajasini kamaytirishga yizmat qiladi.

Ta'lim va tarbiyada diniy qadriyatlar integratsiyasi

Zamonaviy pedagogika diniy qadriyatlarni insonparvarlik (humanism) g'oyalari bilan uyg'unlikda ko'radi. Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabalari sifatida, biz G'arb va Sharq adabiyotidagi axloqiy o'xshashliklarni o'rganar ekanmiz, islomiy manbalarning ta'siri naqadar kengligini ko'ramiz. Krashen (1982) ta'kidlagan "Affective Filter" (hissiy to'siq) nazariyasiga ko'ra, ma'naviy xotirjam talaba bilimlarni tezroq va samaraliroq o'zlashtiradi [2]. Diniy e'tiqod va marosimlar talabalarda ana shunday ichki xotirjamlik va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi.

Tahlil va xulosa

Xulosa qilib aytganda, Islom manbalari va marosimlari jamiyatning ma'naviy hayoti uchun zaruriy quvvat manbaidir. Ularni ilmiy asosda o'rganish yoshlarda nafaqat diniy bilimni, balki chuqur axloqiy ongini shakllantiradi. Islomiy qadriyatlar yoshlarni vatanparvarlikka, o'z xalqining tarixiy merosini hurmat qilishga va dunyoviy

bilimlarni egallash orqali jamiyatga foyda keltirishga undaydi. Barkamol avlod — bu ham zamonaviy ilmlarni egallagan, ham o‘z ma’naviy ildizlariga sodiq bo‘lgan avloddir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hasan, M., & Hoon, T. (2013). Podcast applications in language learning.
2. Krashen, S. (1982). Principles of Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon.
3. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. 2nd Edition. Routledge.
5. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
6. Richards, J. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.